

BARQAROR RIVOJLANISH VA ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH

Azimjanova Feruza Abdurashidovna

Phd mustaqil izlanuvchisi

Murodullayeva Muxlisa Farxod qizi

Alfraganus universiteti stomatologiya yo‘nalishi

1-kurs talabasi

Barqaror rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilish hozirgi davrda insoniyat oldidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yashil hududlarning kamayishi, tabiiy resurslarning tugab borishi, iqlimdagi o‘zgarishlar va shu kabi ekologik muammolar ko‘rsatkichi kun sayin yuqorilab bormoqda. Rivojlanish jarayonida iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikni ta‘minlash bilan birga ekologiyani asrash va uning barqarorligini ta‘minlashga doir sa‘y-harakatlarga zarurat sezilmoqda. Ushbu maqola ekologiyaga oid muammolarning sabablarini hamda ularga yechimlarni ko‘rib chiqish bilan birga bu kabi jarayonda har birimizning rolimiz muhim ekanligini ta‘kidlaydi. Kelajak avlodning yashash muhitini yaxshilash uchun turli chora-tadbirlar olib borilayotgani barchamizga ma‘lum, shuningdek barqaror rivojlanish va atrof-muhitni saqlash nafaqat bugun, balki kelajakda ham bizning hayotimizga ta‘sir etadigan muhim bir yo‘nalishdir, aslida.

Umuman olganda iqlimdagi o‘zgarishlar ayni damdagi jadallashib borayotgan jarayondir. Aslida, bu muammoga sababchi asosiy omillardan biri-issiqxona effekti. 1986-yildan boshlab issiqxona effekti ko‘rsatkichi yuqorilab borishi sayyoradagi haroratning maksimal darajada oshishiga sabab bo‘ldi. O‘sha davrdagi hamda hozirgi ko‘rsatkichlarni solishtiradigan bo‘lsak, ayni damda bu 43% ga oshgani ma‘lum[4]. Yuqoridagi muammoga yechim topish ancha qiyin, chunki insoniyat ancha vaqt mobaynida bu masalaga chora ko‘rmadi. Ammo maksimal darajada bizga yordam bera oladigan chora bu issiqxona gazlari chiqindilari nolga tushirilganda amalga oshadi. Ta‘kidlash joizki, atmosfera qizishi, ya‘ni harorat 1.1 darajaga ko‘tarilgan, bu esa 2040-yilga borib o‘rtacha 1.5 darajaga oshishini bildiradi[5.6]. Keyingi ekologik muammolardan biri yashil hududlarning keskin kamayishidir. Bu muammoni keltirib chiqaradigan sabablarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, birinchi navbatda sanoatlashuvga bo‘lgan talabni ko‘rishimiz mumkin. Zamonaviy turar joylarni va binolarni qurishga bo‘lgan ehtiyoj oshar ekan, hududlarda yashil zonalar shuncha kamayadi[8]. Davlat tomonidan bu muammoni bartaraf etish usullari taqdim qilinmoqda, 2017-2021 yillardagi O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” da yashil hududlarni ko‘paytirish va istiroxat bog‘larini tashkil etish investitsiyalari kiritilgan[1]. O‘simliklar dunyosining qirilishi

va yashil zonalarining yo‘q bo‘lib borishining asosiy sababi bu ozon qatlaminining yemirilishi[3]. Bu jarayon katta miqdordagi quyosh radiatsiyasi yetib kelishini va o‘simlik dunyosini zararlashini ifodalaydi. Yashil hududlar ko‘paytirilishi va daraxtlar parvarish qilinishiga qaramay qurib qoladi, o‘simliklar bargi kichrayadi, shu bilan birga o‘simliklardagi fotosintez jarayonida ham salbiy o‘zgarishlar ro‘y beradi. Aniq aytganda ultrabinafsha nurlari o‘simliklarni jiddiy zararlaydi. Ozon qatlaminining yemirilishi o‘simliklar olamining yo‘q bo‘lishiga xavf solayotgan asosiy omil, bu holatda sababini oldini olish orqali ushbu muammoni hal etish mumkin[3]. Bu qatlamning yemirilishini oldini olish maqsadida turli ishlar amalga oshirilmoqda: aholini jamoat transportidan foydalanishga undash (shaxsiy avtoulavlar orqali qatnov kamayadi va zararli gazlarni atmosferaga tarqalish ko‘rsatkichi pasayadi), ozon qatlamiga xavf soluvchi kimyoviy moddalarni ishlab chiqarmaslik va samalyotlarning baland parvozini minimallashtirish[2.3]. Diqqat markazidagi keyingi muammo tabiiy resurslarning tugab borishidir. Bu jarayonda asosan aholi o‘sishi va yuqori ko‘rsatkichli ishlab chiqarish muhim rol o‘ynaydi[7]. Masalan, dunyo aholisining o‘sishi tabiiy resurslarga bo‘lgan talabni oshiradi, ya’ni ko‘p odamlar uchun oziq-ovqat, suv va energiya zarur bo‘lgani sababli bu manbalar tez tugab qoladi. Aytish joizki, baland ko‘rsatkichli produksiyaning ta’siri bu jarayon uchun yuqoridir, masalan neft, gaz, ko‘mir va metallarning zaxiralari cheklangan, shuningdek bu zaxiralar kamaygach yangi manbalar topish qiyinlashadi. Bu masalalarga yechim taklif qiladigan bo‘lsak, aholining ta’lim darjasini oshirish va oilalarning rejalashtirilgan tug‘ilish darjasini tushirish orqali hamda resurslarga bo‘lgan ehtiyojni qayta tiklanuvchi manbalarga almashtirish orqali amalga oshirsa bo‘ladi[6.7].

Barqaror rivojlanish jarayonini takomillashtirish va atrof-muhitni asrash har bir insonning oliy burchidir. Yuqoridagi namunalardan ayonki, avvalo, muammoni hal qilish uchun uning sabablarini to‘liq aniqlashtirish hamda shu sabablarini bartaraf qilish bo‘yicha muqobil yechimlar topish darkor. Aslida, kelajak avlod uchun yashash sifatini yaxshilashga ekologik muammolarni to‘liq yo‘q qilish orqali erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tadqiqot va innovatsiyalar jurnali. Birinchi jild, to‘rtinchi son. Toshkent 2023-yil.
2. Educational Research in Universal Sciences. Volume 2. Special issue 3.2023.
3. Fan, Ta’lim, Madaniyat va Inovatsiya. Jild 3. Nashr: 5.2024-yil.
4. Ijodkor O‘qituvchi Jurnali. 36-son. 2024-yil.
5. <https://kun.uz/news/2021/08/12/iqlim-ozgarishi-va-insoniyat-global-isish-natijasida-yuzaga-kelishi-mumkin-bolgan-tahdidlar?q=%2Fuz%2Fnews%2F2021%2F08%2F12%2Fiqlim-ozgarishi-va-insoniyat-global-isish-natijasida-yuzaga-kelishi-mumkin-bolgan-tahdidlar> ;
6. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Aholi_sonining_o%CA%BBsishi ;
7. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Qayta_tiklanadigan_energiya ;
8. <https://constructive-voices.com/uz/zamonaviy-shaharsozlikda-bioxilma-xil-yashil-maydonlarni-loyihalash/> .